

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

**“MOLIYA”
KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336:7658(575.1)

JAHONGIR NORMURODOV TOJIMUROD O‘G‘LI

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA PUL OQIMLARINI
PROGNOZ QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar:
i.f.d., prof. I. Alimardonov**

TOSHKENT– 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi
“ _____ ” kafedrasida dastlabki himoyadan
o‘tgan. 7 - sonli bayonnoma “ 20 ” aprel 2023 y.

Kafedra mudiri : X.X.Xudoyqulov


imzo

_____ sana

Ilmiy rahbar: I.M.Alimardonov


imzo

_____ sana

Talaba: T.J.Normurodov


imzo

_____ sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetida

2023 yil “ 25 ” may

№ MBF-01/16 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

ANNOTASIYA

Jahonda globallashtirish va raqobat jarayonlarining tobora kuchayib borishi sharoitida iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda kompaniyalarning pul oqimini shakllantirish va uni prognoz qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, rivojlangan mamlakatlar kompaniyalarining pul oqimlarini prognoz qilishda erkin pul oqimi va diskontlangan pul oqimi usulidan keng foydalanilmoqda. Bu, o'z navbatida, kompaniyalarda kelgusidagi pul oqimlarining real qiymatini aniqlash imkoniyatini ta'minlamoqda.

Bugungi kunda jahon miqyosida kompaniyalarning pul oqimlari prognozini amalga oshirishda erkin pul oqimi usuli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, «2021 yilda AQSHdagi kompaniyalarning erkin pul oqimi 44,2 foizga o'sgan» (Risola 2021). Aksiyadorlik jamiyatlari pul oqimini kengaytirish ularning kelgusidagi pul oqimlarini prognoz qilishning eng maqbul usulidan foydalanish zarurligini namoyon etadi.

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari pul oqimlarini prognoz qilish usulini takomillashtirishda davlat tasarrufidagi yirik korxonalar aksiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish orqali xususiyashtirish jarayoniga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, «davlat ulushi mavjud korxonalarda xususiyashtirish jarayonlariga xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlarini jalb qilish» (Farmon 2021) vazifasi belgilab berildi.

Bu esa, o'z navbatida, mulkchilikning istiqbolli shakli bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini prognozi qilish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: *moliya, korporativ moliya, aksiyadorlik jamiyati, pul oqimi, aksiyadorlik jamiyatlari, qimmatli qog'ozlar, kapital, risk, prognoz, kompleks baholash*

ANNOTATION

In order to ensure the stability of the economy in the conditions of increasing globalization and competitive processes in the world, it is important to form the cash flow of companies and forecast it. In particular, the method of free cash flow and discounted cash flow is widely used when forecasting cash flows of companies of developed countries. This, in turn, provides for the possibility of determining the real value of future cash flows in companies.

In developed countries, it is assumed to use the modern method of forecasting cash flows as a result of a sharp increase in cash flows from investment activities of companies. Today, the method of Free Cash Flow is gaining importance in the implementation of the forecast of cash flows of companies on a global scale. In particular, "in 2021, the free cash flow of companies in the United States grew by 44.2 percent". The expansion of the cash flow of Joint-Stock Companies demonstrates the need to use the optimal method of forecasting their future cash flows.

In Uzbekistan, the main emphasis is placed on the process of privatization of shares of large enterprises owned by the state through the primary and secondary public placement on the stock exchange in improving the method of forecasting cash flows of Joint-Stock Companies. In particular, the task was set "to attract foreign investors and international financial institutions to the processes of privatization in enterprises with a state share."

This, in turn, remains one of the urgent problems when developing scientifically-practically based conclusions and recommendations for improving the mechanisms for forecasting cash flows in joint-stock companies, which are a promising form of ownership.

Keywords: Finance, Corporate Finance, Joint Stock Company, cash flow, joint stock companies, securities, capital, risk, forecast.

MUNDARIJA

	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	12
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	12
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	14
2.1. Kirish.....	14
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	15
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	23
III BOB. METODOLOGIYA.....	29
3.1. Tadqiqot dizayni.....	29
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	29
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	29
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlari.....	30
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechim ...	30
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	30
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	31
Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini	
4.1. prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish samaradorligini	31
baholash uslublari.....	
4.2. O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari pul oqimini prognoz	
qilish mexanizmlarining hozirgi holati tahlili.....	37

Mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarining erkin pul oqimini	
4.3. prognoz qilish usul va vositalarining umumiy ko'rsatkichlari, 45	
tarkibiy o'zgarishlar va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	
V BOB. XULOSA.....	59
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	59
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	62
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	67

I BOB. KIRISH

1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Global iqtisodiy makonda kuzatilayotgan tizimli va notizimli muammolar aksariyat korporativ tuzilmalar to'lov qobiliyati va likvidligi boshqarish orqali ular moliyaviy barqarorligini samarali boshqarishda innovatsion usullardan foydalanishni taqozo qilmoqda. Xususan, joriy xo'jalik faoliyati uzluksizligini ta'minlash, moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlar optimal hajmiga asoslangan holda ishchi kapitalni samarali boshqarishda pul oqimlarini boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Milliy kompaniyalarimizda pul oqimlarini operatsion, moliyaviy, va investitsion faoliyat turkumlari bo'yicha boshqarish amaliyotida tizimli yondashuvlarni etishmasligi ularni doimiy ravishda likvidlik va to'lov qobiliyati bilan bog'liq muammolarga duch kelinmoqda.

Jahondagi yirik kompaniyalarning to'lov qobiliyatini aniqlash, moliyaviy strategiyasini rejalashtirish, sof pul oqimlarining samaradorligini baholash, likvidlik holatini aniqlashda erkin pul oqimi usulidan foydalanish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kompaniyalarning asosiy kapital, aylanma kapital va amortizatsiya xarajatlari o'zgarishlarini e'tiborga olgan holda pul oqimlarini prognoz qilishda erkin pul oqimi hamda diskontlangan pul oqimi usullaridan foydalanish, kompaniyalarda kelgusidagi pul oqimining joriy qiymatini baholash, foizlar va soliqlarni to'lashdan oldingi daromadni aniqlash, soliqlar to'langan keyingi sof operatsion foydani hisoblash va kompaniyaga yo'naltirilgan reinvestitsiyani aniqlash, kompaniyalarning pul oqimlarini prognoz qilishda ichki va tashqi omillarning ta'sirini baholash bu boradagi o'zining oqilona echimini kutayotgan o'ta dolzarb muammolardir (Farmon 2021).

Rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarning investitsiya faoliyatidan olinadigan pul oqimlarining keskin ortishi natijasida pul oqimlarini prognoz qilishning zamonaviy usulidan foydalanish taqozo etilmoqda. Jahondagi yirik kompaniyalarning to'lov qobiliyatini aniqlash, moliyaviy strategiyasini rejalashtirish, sof pul oqimlarining samaradorligini baholash, likvidlik holatini aniqlashda erkin pul oqimi usulidan foydalanish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kompaniyalarning